

## XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDAGI MIGRATSIYA VA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING AHOLI MILLIY TARKIBIGA TA'SIRI

**Jaloliddin Polvanov**

O'qituvchi

O'zbekiston Milliy universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XX asr boshlarida Xiva xonligida yuz bergan migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining aholi milliy tarkibiga ko'rsatgan ta'siri tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Rossiya imperiyasining siyosiy va iqtisodiy bosimi ostida xonlikda yuz bergan ijtimoiy harakatlar, aholi ko'chishi va shaharlarga oqib kelishi jarayonlari demografik tarkibda qanday o'zgarishlarga olib kelgani arxiv hujjatlari asosida ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Xiva xonligi, urbanizatsiya, migratsiya, milliy tarkib, Rossiya imperiyasi, XX asr boshlari, demografik o'zgarishlar.

XX asrning boshlarida Xiva xonligi o'zining tarixiy rivojlanishida murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshdan kechirdi. 1873 yildan boshlab Rossiya imperiyasining ta'sir doirasiga tushgan bu hududda iqtisodiy islohotlar, infratuzilma o'zgarishlari va ma'muriy choralar bilan bir qatorda aholi tarkibida jiddiy siljishlar yuz berdi. Bu siljishlar, avvalo, migratsion harakatlar va urbanizatsiya jarayonlari orqali yuzaga chiqdi. Mazkur maqolada aynan shu ikki omil — migratsiya va urbanizatsiyaning Xiva xonligi hududidagi aholi milliy tarkibiga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilinadi.

1873-yilda Xiva xonligining Rossiya imperiyasi ta'sir doirasiga tushishi hududda demografik tarkibning jadal o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon avvalo harbiy-siyosiy nazoratni mustahkamlash maqsadida imperiyaning turli ijtimoiy guruhlari, jumladan harbiy zobitlar, texnik xodimlar, muhandislar, statistika mutaxassisleri va davlat ma'murlarining xonlik hududiga kiritilishi orqali boshlandi. Ayniqsa, Amudaryo bo'limi orqali Rossiyaning janubiy chegaralarini mustahkamlashga doir harbiy va strategik loyihalar doirasida o'rnatilgan postlar Xiva xonligining migratsion xaritasini keskin o'zgartirdi.

V.Lobachevskiy rahbarligida o'tkazilgan 1910-yilgi ro'yxat hujjatlarida ruscha familiyalar, pravoslav diniga mansub bo'lgan shaxslar va turli kavkazlik guruhlar (armanlar, gruzinlar) qayd etilgani Rossiya imperiyasi yuritgan "aholi aralashtirish" siyosatining samarasi sifatida ko'riladi. Bu holat imperiyaning

mustamlakachilik siyosatida sinovdan o'tgan ijtimoiy muvozanat strategiyalaridan biri bo'lgan.

Shuningdek, ichki migratsiya jarayonlari ham ancha jadallashdi. Xususan, xonlikning turli tumanlarida yuzaga kelgan tabiiy ofatlar — qurg'oqchilik, yer unumdorligining pasayishi, soliq yukining og'irligi, yer taqsimotidagi adolatsizlik, ayrim mintaqalarda feodal zulim va ijtimoiy beqarorlik sababli o'zbek, qoraqalpoq va turkman aholisi yangi sug'oriladigan yerlarga yoki shahar atroflariga ko'chishga majbur bo'ldi. Bu omillar ichki migratsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida namoyon bo'ldi.

Ko'chishlar asosan Xiva, Urganch, Ko'hna Urganch va Pitnak kabi yirik ma'muriy va savdo markazlariga yo'naltirildi. Chunki bu shaharlarda Rossiya tomonidan joriy etilgan yangi soliq tizimi, sug'orish inshootlarining qurilishi va transport aloqalarining yaxshilanishi aholi uchun yashash va mehnat qilish imkoniyatlarini kengaytirgan edi. Bu jarayon urban markazlarda aholi zichligining oshishiga, ko'p xonadonli mahallalarning paydo bo'lishiga, mavjud infratuzilmaning keskin bosim ostida qolishiga olib keldi.

Boshqa tomondan, Xiva xonligiga tashqaridan — ya'ni Buxoro amirligi, Turkiston general-gubernatorligi hududlaridan ham aholi kirib keldi. Ular orasida savdogarlar, kosiblar, ilm ahllari va hattoki diniy yo'nalishda boshpana izlagan guruhlar ham mavjud bo'lgan. Shunday qilib, Xiva xonligida demografik portlash emas, balki asta-sekin amalga oshgan, ammo chuqur iz qoldirgan migratsion jarayon yuz berdi.

XX asr boshlarida Xiva xonligida zamonaviy sanoat ishlab chiqarishi hali shakllanmagan edi. Biroq shaharlarda iqtisodiy faollik nisbatan yuqori bo'lib, bozorlardagi savdo-sotiq, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ma'lum darajada urbanizatsion o'sishga xizmat qilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan yangi bojxona tartiblari, yo'l qurilishlari, sug'orish tizimlarining kengaytirilishi urban markazlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan faol hududlarga aylantirdi.

Urbanizatsiyaning demografik natijasi sifatida shaharlarda milliy tarkibning murakkablashuvi jarayoni kuzatildi. Mahalliy o'zbek aholisi bilan bir qatorda shaharlarda turkman, qoraqalpoq va rus aholisining ulushi ham ortib bordi. Bunday etnik aralashuv avvalo savdo markazlari, ma'muriy binolar, karvonsaroylar va masjidlar atroflarida kuchliroq sezilar edi. Ayni paytda rus-turkman, rus-o'zbek va o'zbek-qoraqalpoq o'rtasidagi iqtisodiy hamkorliklar, qarindoshlik rishtalari va diniy-madaniy muloqotlar mustahkamlandi.

Urbanizatsiya jarayoni ayniqsa Xiva va Urganch kabi tarixiy shaharlarda kuchliroq bo'ldi. 1910-yilgi aholi ro'yxatlarida shaharlardagi xo'jaliklar sonining keskin ortgani va turli din va millatlarga mansub oilalarning bir-biriga yaqin joylashgan mahallalarda yashagani aniqlanadi. Bu esa millatlararo ijtimoiy muloqotni faollashtirgan.

Urbanizatsiyaning yana bir muhim ijtimoiy ta'siri — mahalla tizimidagi o'zgarishlarda ko'rinadi. An'anaviy tarzda bir xil etnik yoki urug'iy guruhdan iborat bo'lgan mahallalar, ichki migratsiya tufayli aralash tarkibli bo'lib bordi. Masjid qavmlari, diniy jamoalar, mahalla oqsoqollari yangi sharoitga mos tarzda ijtimoiy nazorat va qo'llab-quvvatlash tizimini qayta shakllantirishga majbur bo'ldilar.

Masalan, mahallalarda ikki yoki undan ortiq millatga mansub oilalar yashagan hollarda jamoaviy qarorlar qabul qilish murakkablashdi. Bu esa yangi tartib-qoidalarning joriy etilishini talab etdi. Shuningdek, urbanizatsiya ta'sirida ayollar va yoshlar orasida yangi turmush tarziga moslashish jarayonlari boshlanganini ham tarixiy voqealar ko'rsatadi.

Ko'p hollarda urban markazlardagi etnik muvozanat shahar atroflarida dehqonchilik bilan shug'ullanadigan aholining ko'chib kelishi natijasida o'zgardi. Bu holat Xiva xonligining keyinchalik Xorazm Xalq Respublikasi davridagi demografik tarkibiga ham zamin yaratdi.

Xiva xonligining XX asr boshlaridagi demografik tuzilmasini o'rganishda asosiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'zR MDA)ning 125-fondidagi hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi harbiy-statistik xizmatining vakili polkovnik V. Lobachevskiy boshchiligida 1910 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati mazkur davr aholining ijtimoiy-iqtisodiy va milliy-etnik tarkibi haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Mazkur hujjatlarda aholi faqatgina umumiy son bilan emas, balki xo'jaliklar kesimida, har bir oilaning boshlig'i, uning qarindoshlari, yer egalik huquqi, iqtisodiy holati, daromad miqdori, yerni sug'orish manbasi, ekin maydonlari, masjid qavmiga mansubligi, vaqf yoki mulk yerlariga egaligi kabi ko'rsatkichlar bilan ro'yxatga olingan. Bu esa tarixiy demografik tadqiqot uchun mukammal statistik asos yaratadi.

1910 yilda tuzilgan ro'yxatlarda Pitnak shahri va uning atrofi bo'yicha 3610 ta xo'jalik qayd etilgan bo'lib, ularning tahlili orqali milliy-etnik tarkibda qanday qatlamlar mavjud bo'lgani aniqlanadi. Jumladan, o'zbeklar aholining asosiy qismini tashkil qilgan. Ular yerga egalik qilish, masjidlarga biriktirilganlik, yer solig'i (solg'ut) to'lash kabi mezonlar orqali ajralib turadi. Turkmanlar esa aksariyat hollarda chekka hududlar yoki ariq bo'ylarida yashagan, ayrim hollarda chorvachilik bilan shug'ullangan. Ularning ayrimlari mobil hayot tarzini saqlab qolgan bo'lishiga

qaramay, ro‘yxatga turgan xo‘jaliklar soni ortib borgan. Qoraqalpoqlar esa ayniqsa qishloq hududlarida va Xiva xonligining shimoliy qismlarida yashagan, ayrim hollarda urug‘ nomi orqali qayd etilgan. Ruslar esa ismlari ruscha familiyalar va pravoslav diniy aloqalar orqali aniqlanadi. Ular ko‘pincha ma‘muriy yoki harbiy xizmatda bo‘lgan, ayrim hollarda esa shahar markazlarida joylashgan mulkli xo‘jaliklarga egalik qilgan. Ro‘yxatda arman, tatar va yahudiy ismlarining ham uchrashi, xususan Urganch va Pitnakdagi savdo markazlarida ko‘proq qayd etilgani ham kuzatiladi.

Bu ro‘yxatlar asosida etnik diversifikatsiya – ya‘ni bir hududdagi aholining milliy tarkibda xilma-xilligi kuchayganini kuzatish mumkin. Masalan, birgina masjidga birlashtirilgan bir nechta oilalar orasida turli millat vakillarining mavjudligi, mahalla va masjid qavmlarining aralash holga kelayotganidan darak beradi.

Arxiv hujjatlarining e‘tiborga molik jihati — aholining masjid qavmi orqali qayd etilishi. Bu jihat, diniy identifikatsiyaning nafaqat ruhiy-ma‘naviy, balki ma‘muriy va hududiy tashkilotlanishda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Masjid nomlari orqali turli millat vakillarining bir diniy markaz atrofida jamlangani aniqlanadi, bu esa diniy integratsiya jarayonining boshlanayotganini bildiradi. Shuningdek, ba‘zi masjidlarda faqat o‘zbeklar yoki qoraqalpoqlar, boshqalarida esa turkmanlar ustunlik qilgan. Ruslar esa alohida “pravoslav jamoalari” ko‘rinishida qayd etilgan, bu esa millatlararo masofaning ma‘lum darajada saqlanganini ham ko‘rsatadi.

Etnik guruhlarining iqtisodiy holati ham ro‘yxat orqali kuzatiladi. Masalan, o‘zbek xo‘jaliklari odatda ko‘p yerli, “mulk” yoki “vaqf” statusiga ega bo‘lgan. Turkman va qoraqalpoq xo‘jaliklari esa ko‘proq kam yerli, chorvachilik yo‘nalishida bo‘lgan, ba‘zan esa “fartav” (ya‘ni, ekilmaydigan yerlar) ko‘rsatilgan. Ruslar esa ko‘p hollarda daromadli, sanoat yoki ma‘muriy faoliyat bilan shug‘ullangan xo‘jaliklarga egalik qilgan.

Bu tahlillar Xiva xonligida etnik guruhlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar mavjud bo‘lganini, bu tafovutlar tarixiy sharoit va siyosiy tizim bilan bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatadi.

Arxiv manbalariga tayangan holda 1910-yilgi aholi ro‘yxati Xiva xonligida milliy tarkibda sodir bo‘lgan demografik o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ro‘yxatlar orqali aholining millati, dini, iqtisodiy holati va joylashuvi bo‘yicha boy ma‘lumotlar olinadi. Bu esa tarixiy demografiya, sotsiologiya va etnologiya yo‘nalishlaridagi tadqiqotlar uchun beqiyos manba hisoblanadi.

XX asr boshlarida Xiva xonligida sodir bo‘lgan migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki demografik o‘zgarishlarga ham olib

keldi. Aholining shaharlarga ko‘chishi, Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan islohotlar va aholi ro‘yxatlarining shakllanishi jarayonida milliy tarkib sezilarli darajada o‘zgardi. Etnik guruhlar aralashuvi, yangi demografik muvozanatlar va urban markazlarda ko‘p millatli jamoalarning shakllanishi Xiva xonligining tarixiy rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi. Bu holatlar tarixiy demografiya fanining muhim tadqiqot yo‘nalishlari sifatida o‘rganilmoqda va kelgusida yanada chuqur tahlil etilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент: Абу Али Ибн Сино, 1998. – 240 с.
2. Иванов П.И. Архив хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. – Л.: АН СССР, 1940. – 312 с.
3. Лобачевский В. Хивинский район. – Ташкент: Тип. Туркестанского Военного Округа, 1912. – 68 с.
4. Гиршфельд В., Галкин М.Н. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. – Ташкент, 1903. – 97 с.
5. Шелестев Д.К. Историческая демография. – М.: Высшая школа, 1987. – 212 с.
6. Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900–1924 йиллар). Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2005. – 135 б.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. 125-fond, 1-ro‘xat, 526–537-ishlar. (Xiva xonligining 1910-yilgi aholi ro‘yxati hujjatlari)
8. Қодиров Ш. Ўзбекистон тарихида демографиянинг ўрни. – Тошкент: Fan, 2000. – 186 б.
9. Saidov B. Tarixiy demografiyaning nazariy va metodologik asoslari. – Samarqand: Registon, 2015. – 144 b.
10. Абдурахмонов К.Х. Миграционные процессы в Средней Азии в конце XIX – начале XX века. – Ташкент: Фан, 1993. – 160 с.